



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH USLUBIYOTINING UZLUKSIZ TA'LIMI TIZIMIDAGI O'RNI

Bekchanova Saboxatxon Abbosxonovna

O'zXIA akademik litseyi

Informatika va axborot texnologiyalari fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ta'lif tizimida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Informatik, axborot texnologiyalari, metodika, kompyuter, dars.

«Informatika o'qitish metodikasi» fani umumta'lif maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi bo'lim hisoblanadi.

Informatika fanini o'qitish qo'yidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- ✓ bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan quollantirish;
- ✓ bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;
- ✓ bo'lajak o'qituvchilarni ta'lif sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta'lif maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

«Informatika o'qitish metodikasi» fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi axborot texnologiyasini, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni chuqur o'rgangan, shuningdek, jamiyatni, ta'limni axborotlashtirilayotgan sharoitda ishlash uslublarini egallagan bo'lishi lozim.

«Informatika» fan va o'quv predmeti sifatida

Informatika o'quv predmeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzbek bog'liq. SHuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri b'lgan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda «Informatika» fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ❖ o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- ❖ o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- ❖ o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish;
- ❖ komp'yuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

O'qitishning metodik tizimi. «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fanining mazmunini aniqlashda informatikaning fan va ikkinchi tomondan o'quv predmeti ekanligi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqish kerak. Informatika fani va o'quv predmeti bir-biridan avvalambor mazmunining hajmi va chuqurligi bilan farq qiladi. Informatika o'quv predmeti informatika fanidan o'quvchilarda informatika haqida bir butun, yaxlit bilimlar tizimini hosil qiladigan va kelajak amaliy faoliyatlarida zarur bo'ladigan ma'lumotlarnigina oladi. Informatika o'quv predmeti sifatida o'quv dasturlari va darsliklarda o'z aksini topadi.

Informatika o'quv predmeti tarkibiga kiritilgan o'quv materialining hajmi to'g'risidagi masala hal etilgandan so'ng, ushbu o'quv materialini o'quvchilarga qanday ketma-ketlikda etkazib berish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash lozim. «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fanining hususiyatlaridan biri o'quvchilarni informatikaning mazmunini va unga xos ilmiy izlanish usullarini egallash, amaliy bilimlar va ish ko'nikmalarini olishning usul va yo'llarini belgilash lozim. Bularga o'quv materialini o'rganish usullari va zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari kiradi. Informatikadan mashg'ulotlarni samarali o'tkazish uchun tegishli material bazasi, ya'ni maxsus jihozlangan informatika xonasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”. “Qishloq hayoti” gazetasи 03.06.2005 y.
2. Farberman. B.L . “Ilg'or pedagogik texnologiyalar”. T: 2001 y.
3. Informatika o'qituvchisi Xaytullayeva Nafisa Sahobiddinova blogi